



UO'K: 8.81.812.8122

Navruza MAMAJONOVA,
Alfraganus nodavlat oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi
E-mail: mamadjonovanavruza777@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor v.b M.Saparniyozova taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA METAFORIK TAMG'NING IFODALANISHI

Annotatsiya

Axborotning oshkora bayoni ifodaning har qanday ko'rinishida mavjud bo'lib, nutq predmeti haqidagi propozitsiyani anglatadi. Axborotning yashirin bayoni esa ana shu oshkora bayon tarkibiga joylashtiriladi. Topishmoqlarda berilgan axborot bayoni xuddi shunday yashirin xarakterda bo'lib, biz bu ma'noni metaforik tagma'no deb nomladik. Ushbu maqoladagi o'zbek xalq topishmoqlarida metaforik tagma'no va uning o'ziga xos xususiyatlari, metaforik tagma'noning turlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Topishmoq, metafora, tagma'no, semantik komponent, deskriptiv, figural ma'no, eksplitsit, kommunikativ vaziyat, mantiqiy urg'u.

ВЫРАЖЕНИЕ МЕТАФОРИЧЕСКОГО СМЫСЛА В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПРАВИЛАХ

Аннотация

Эксплицитное высказывание информации существует в любой форме выражения и представляет собой суждение о предмете речи. Имплицитное высказывание информации заложено в структуру этого эксплицитного высказывания. Информационное высказывание, данное в загадках, имеет ту же скрытую природу, и это значение мы назвали метафорической тагманой. В данной статье рассматривается метафорическая тагмана и её особенности, а также виды метафорической тагманы в узбекских народных загадках.

Ключевые слова: Загадка, метафора, аллегория, семантический компонент, описательное, образное значение, эксплицитное, коммуникативная ситуация, логическое выделение.

THE EXPRESSION OF METAPHORICAL MEANING IN UZBEK FOLK RULES

Annotation

The explicit statement of information exists in any form of expression and represents a proposition about the subject of speech. The implicit statement of information is placed in the structure of this explicit statement. The information statement given in riddles is of the same hidden nature, and we called this meaning a metaphorical tagmana. This article discusses the metaphorical tagmana and its specific features, as well as the types of metaphorical meaning in Uzbek folk riddles.

Key words: Riddle, metaphor, allegory, semantic component, descriptive, figural meaning, explicit, communicative situation, logical emphasis.

Kirish. Topishmoqlarda fikrlash faoliyatining natijasida noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi, ya'ni topishmoqda so'zlovchi nazarda tutgan axborot oshkora bayon qilinmasdan, yashirin mazmun ko'rinishlaridan iborat bo'ladi[1].

M.Hakimov yashirin mazmun ifodalash shakllari turlicha ko'rinishlardan iborat bo'lganligi uchun ularni umumiy va xususiy yashirin ma'nolar deb ikki guruhga ajratadi. U shunday yozadi: "Umumiy yashirin ma'nolar so'zlovchi, tinglovchi va barcha nutq ishtirokchilari anglab olishi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolardir. Bularga ibora, replika, maqol, matal, topishmoq va shu kabilar kiradi"[2]

Axborotning oshkora bayoni ifodaning har qanday ko'rinishida mavjud bo'lib, nutq predmeti haqidagi propozitsiyani anglatadi. Axborotning yashirin bayoni esa ana shu oshkora bayon tarkibiga joylashtiriladi. Topishmoqlarda berilgan axborot bayoni xuddi shunday yashirin xarakterda bo'lib, biz bu ma'noni metaforik tagma'no deb nomladik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Tagma'noning bunday ko'rinishlarida so'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish bilan o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi"[2]

Topishmoqlarda metaforik tagma'no quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Gapning mazmuniy tuzilish birligi bo'lgan subyekt "shaxs", subyekt "noshaxs" yashirin ma'noga ega bo'ladi, bunda u o'z aniqlovchisi bilan deskriptiv holatda (birdan ortiq so'zdan tashkil topgan, birikmali) bo'ladi.

2. Subyekt metaforik tagma'no real va noreal mazmun negizida hosil bo'ladi. Mazkur topishmoqlar "... ikki parallel ma'no sathiga (tashqi va ichki, ochiq va yashirin) so'zlar esa ikki yoqlama aloqadorlik xususiyatiga ega, binobarin, bir vaqtning o'zida har ikki ma'no sathida ham mavjud"[3.6] Boshqacha qilib aytganda, topishmoq xabar, darak bildiruvchi oddiy gapdan farq qilmaydi. Rus tilshunosi A.I.Yefimovning ta'kilashicha, "Odatda badiiy asarda obrazli figural ma'noda qo'llangan so'z unga tobe bo'lgan, mazmunan unga bog'langan va u singari ko'chma – metaforik ma'noda qatnashuvchi butun bir so'z zanjirini ham o'ziga tortib turadi. Tushunish uchun o'ziga xos tagma'no zarur bo'lgan yaxlit metaforik matn vujudga keladi. Metaforik matn asosida o'ziga xos ma'noviy paralellizm, ikki mazmun qatorining mavjudlik holati sifatida tushuniladigan ma'noviy juft sathlik yotadi"[4]

Fotma – Zuhra urishadi,
Merosini bo'lishadi. (Qaychi).

Qo'shningning arqoni devordan oshib tushdi. (Oshqovoq).

Tadqiqot metodologiyasi. Bu topishmoqlarda Fotma-Zuhra – egizaklar, qaychining ikki tig'iga ishora; real denotat - Fotma-Zuhra, metaforik tagma'no – qaychi. qo'shningning arqoni – real denotat, oshqovoq – metaforik tagma'no.

Noreal mazmun negizida subyekt metaforik tagma'no hosil qiladi:

Bir yaproqda o'ttiz kelin soch taraydi. (Oy, kunlar)

Katta oppoq dasturxon hamma yoqni qoplagan. (Qor)

Bularda bir yaproqda o'ttiz kelin soch tarashi, dasturxonning hamma yerni qoplashi noreal voqeadir. Subyekt metaforik tagma'no – topishmoqlarda topilishi kerak bo'lgan, jumboqlanayotgan so'z ega vazifasida keladi.

2. Obyekt umumiyashirin ma'noga ega bo'ladi. O'z navbatida obyekt metaforik tagma'no ham ikki ko'rinishda bo'ladi; a) real mazmunli obyekt metaforik tagma'no: Qizil buzog'imni og'ildan haydasam, chiqmaydi. (Til). Yurib, oq tovug'imni yo'qotdim. (Tupuk)

b) noreal mazmunli obyekt metaforik tagma'no: Esanboy akamning qissasini el yig'ilib tikolmas (Yer yorig'i). Ajab bir gumbazlik uy ko'rdim, na eshigi bor, na teshigi. (Yomg'ir ko'pigi). Obyekt metaforik tagma'no gapning to'ldiruvchi konstruktiv bo'lagi sifatida keladi. Subyekt va obyekt umumiyashirin ma'noga ega bo'lganda topishmoq tarkibida real denotat sifatida ishtirok etadi. Topishmoqlarda metaforik tagma'noning yana shunday ko'rinishi ham mavjudki, ularda metafora predmeti ishtirok etmaydi. Tinglovchi aniq kommunikativ vaziyatda so'zlovchi tomonidan berilgan ifoda mazmunini qabul qilar ekan, ifodaning mazmunida so'zlovchi nimani nazarda tutganligini aniqlashi zarur bo'ladi. Buning uchun tinglovchi so'zlovchi nutqiga xos «A» ifodasidan «B» semantik xulosani topib olishi shart hisoblanadi. Metaforik tagma'noning bu ko'rinishini shartli ravishda predikat metaforik tagma'no deb atashni ma'qul ko'rdik. Tutgan yerini uzar. (Ombir). Urmasdan yig'lalar. (Piyoz). Umumiyashirin ma'no kasb etgan harakat – predikatlar yashirin denotat – topishmoq javobi bilan birgalikda predikativ ifoda hosil qiladi: Ombir uzadi, piyoz yig'latadi kabi.

Tahlil va natijalar. Shuni ta'kidlash kerakki, asosiy mantiqiy urg'uni harakat, ya'ni, predikat o'z ustiga olishiga qaramasdan (uzish ombirning, yig'latish piyozning asosiy xususiyati) kesim ham deskriptiv holatda bo'lishni taqozo etadi. Axborotni tushunish jarayonida kesimning argument bo'laklari barchasi barobar xizmat qiladi. Predikat metaforik tagma'nolarning mazmunli va uyushtiruvchi markazi fe'l predikatlar va ot predikatlar sanaladi.

Fe'l predikatlarining valentliklarini to'ldirib kelgan sintaktik qurilmalar deskriptiv kesimning hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Shunga ko'ra predikat metaforik tagma'nolarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Subyekt uzvli predikat metaforik tagma'no:

Past osmondan qor yog'ar. (Elak).

Momom ketib borayotir,

Kulchasi qolib borayotir. (Tuya oyog'ining izi).

O'rin-payt uzvli predikat metaforik tagma'no:

Kunu tun yuradi, doim bir joyda turadi. (Soat).

Qishda yaxlamaydi, yozda yaxlaydi. (Sho'r yer).

Tarz uzvli predikat metaforik tagma'no:

Uchib kelar g'oz kabi,

O'rin solar muz kabi,

G'ijirlar saxtiyon kabi,

Achchiq bo'lar tuz kabi. (Qor, ayoz).

Shart uzvli predikat metaforik tagma'no:

Yotsa turmas,

Tursa yotmas. (Qop).

Bir to'kilsa, qayta to'lmas (Obro', nomus).

Xalq topishmoqlarida ko'zda tutilgan mazmun ixcham, yashirin ifodalanadi. Shu bilan voqelikdagi narsa-hodisalarni qiyosan anglash, his etish, o'rganishga keng imkon yaratadi, mantiqiy tafakkur taraqqiyoti uchun eng qulay va muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Topishmoqlar fikrning ixcham ifodalanish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli ko'p hollarda subyekt garchi eksplitsit ifodalansa ham, u bevosita holat, belgi egasi bo'la olmaydi.

Topishmoqlarda eksplitsit ifodalangan subyekt tashqi va ichki ma'no sathiga ega bo'ladi. Masalan: Sariboy akam ichkari, soqollari tashqari. (Sabzi). Bu topishmoqda subyekt – Sariboy akam tashqi ma'no sathida real denotatni ifodalab kelganday bo'ladi. Ichki ma'no sathida esa Sariboy aka – sariq rangli predmetga ya'ni sabziga ishora qiladi. Bunday subyektning biz shartli ravishda mantiqiy havola subyektlar deb nomladik. «Havola bo'lak», «Havola birlik» terminlariga N.Mahmudov, A.Nurmonov [5] umumiy tilshunoslikdagi «deyxis belgilar»ga bog'lab ta'rif berishadi, olmosh, nisbiy so'zlar kabilarni deyxis belgilar sifatida qo'shma gaplarda qatnashuvchi havola bo'laklari deb nomlaydi.

Subyekt ko'pincha mantiqiy havola bo'laklar vazifasida keladi. Buning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni, voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko'ra ularni mazmunan kuchsiz, bo'sh so'zlar sifatida qarash mumkin.

Yuqoridagi topishmoqda Sariboy akam havola bo'lagi bor. U subyekt - ega vazifasida kelgan. Mazkur subyektning topishmoq javobiga (sabzi) havola qilinishiga ko'ra mazmunan ega o'rniga qo'yib idrok qilinadi: Sabzi ichkarida, palagi tashqarida. Demak palallel ma'no sathlari bo'yicha mazkur topishmoq subyektlari: Sariboy aka – tashqi ma'no sathi – mantiqiy havola bo'lak bo'lsa, sabzi – ichki ma'no sathida real denotatdir. Yoki: Oltmish ikki aybni oq yopar. (Qatiq). Oq – tashqi ma'no sathi – mantiqiy havola bo'lak bo'lsa, qatiq – ichki ma'no sathida real denotatdir. Bu gapni oltmish ikki aybni qatiq yopar deb transformatsiya qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xalq topishmoqlarida sodda gap tuzilishini o'rganish bilan bog'liq ravishda quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Xalq topishmoqlarida sodda gapning minimal qolipi polipredikativ xarakterda bo'ladi.

2. Gap bo'laklarining tartibi turg'un bo'ladi. Topishmoqlarda gap bo'laklarining qat'iy tartibi ikkita holat bilan bog'liq bo'ladi: a) gap bo'laklarining tartibi kommunikativ maqsadni aks ettiradi, jumla tuzilishida aktual bo'lak oldin qo'llanadi; b) gapda metaforik tagma'no hosil qilgan bo'lak oldin qo'llanadi.

3. Metaforik tagma'no hosil qilgan bo'lak topishmoqlarda deskriptiv holatda qo'llanadi. Topishmoqlarda deskriptiv bo'laklar ega, to'ldiruvchi, qaratqich va sifatlovchi pozitsiyalarida kelishi kuzatiladi.

4. Darak gaplarning shakliy paradigmasida kesimlari o'tgan va hozirgi zamon shakllarida bo'ladi. Kesimning kelasi zamon shakli darak gap tipidagi topishmoqlar uchun xos emas.

5. Topishmoqlarda ritorik so'roq gapdan anglashiluvchi javobga ishora qiluvchi bo'lakka tinglovchi e'tibori jalb qilinmaydi, balki topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning metaforik «muqobili» logik urg'u oladi. Natijada, ritorik so'roq gapdan anglashiladigan javob topishmoq javobi sanaladi.

6. Eksplitsit subyekt ot va otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi va gapda ega, to'ldiruvchi va qaratqich pozitsiyalarida keladi.

7. Xalq topishmoqlarida subyektning implitsit, ya'ni grammatik jihatdan ifodalanmagan, mantiqan ko'zda tutilgan holati ham mavjud, topishmoqlarda implitsit subyekt topishmoq javobi orqali reallashadi.

8. Topishmoqlarda noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent – metaforik tagma'no ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR

1. Saparniyazova M.Y. O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi. dis.-T., 2005, 59-b
2. Hakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fanlari nomzodi d-ri dis. ... avtoref. - T., 2001,35-b
3. Abdullayeva D.T. Mazmuniy subyekt va uning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. - T., 2001. – 25 b.
4. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. - М.: Изд-во МГУ, 1957.
5. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - T.: qituvchi, 1995.-232-b
6. Вейнрейх У. О семантической структуре языка. в кн. Новое в лингвистике. Выл. У. – М.: Прогресс, 1970.
7. Abdullayev J. O'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari.Filol,fanlari nomzodi d-ri diss. -T., 1994, 14-b